



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING
BUYRUG'I**

**Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-iyuldaggi 446-F-son farmoyishi ijrosi
to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-iyuldaggi 446-F-son farmoyishida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizda 58-xalqaro kimyo olimpiadasini (International Chemistry Olympiad – IChO) 2026-yilda yuqori saviyada tashkil etish to'g'risida 2024-yil 10-iyuldaggi 446-F-son farmoyishi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2026-yil O'zbekistonda bo'lib o'tadigan 58-xalqaro kimyo olimpiadasiga (keyingi o'rnlarda – olimpiada) tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining chora-tadbirlar rejasi (keyingi o'rnlarda – chora-tadbirlar rejasi) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. 2026-yilda O'zbekistonda bo'lib o'tadigan olimpiadani yuqori saviyada tashkil etish bilan bog'liq barcha xarajatlar "O'zkimyosanoat" AJ va uning tizimidagi tashkilotlarning mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Fan olimpiadalarini o'tkazish va iqtidorli o'quvchilarni saralash boshqarmasi (U.Raxmonov)ga:

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi bilan birgalikda 2024-yil Saudiya Arabistoni va 2025-yil Birlashgan Arab Amirliklarida bo'lib o'tadigan 56 hamda 57-xalqaro kimyo olimpiadalarini tashkil etish bo'yicha amaliy tajribasini chuqur o'rganish va tahlil qilish maqsadida O'zbekiston delegatsiyasini shakllantirish hamda xalqaro olimpiadalarga yuborish yuzasidan vazirlik rahbariyatiga taklif kiritish;

2024-yil so'ngiga qadar manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2024-yildan boshlab Olimpiadani tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq har yilgi xarajatlar smetasini 2026-yil O'zbekistonda bo'lib o'tadigan 58-xalqaro kimyo olimpiadasiga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita (keyingi o'rnlarda – Tashkiliy qo'mita)ga kiritish;

2025-yil 1-aprelga qadar mavjud infratuzilmalar quvvatini tahlil qilish asosida Olimpiadaning laboratoriya va nazariy bosqichlari o'tkaziladigan obyektlar bo'yicha takliflar tayyorlash va tasdiqlash uchun kiritish;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda Olimpiadaning Ilmiy qo'mitasiga nomzodlar tavsiya etish choralarini ko'rish;

2024-2025-o'quv yili yakuniga qadar 8-9-10-sinf o'quvchilari orasidan Olimpiadada ishtirok etuvchi mamlakatimiz milliy terma jamoasiga nomzodlarni shakllantirish, kimyo fani bo'yicha ularning bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun maxsus o'quv mashg'ulotlariga mentorlar, mahalliy trener va xorijiy ekspertlarni shartnoma asosida jalb qilish bo'yicha takliflar kiritish;

o'quvchilarni nufuzli xalqaro olimpiadaga tayyorlashda bevosita ishtirok etadigan mentor, mahalliy trener va xorijiy ekspertlarni xarajatlar smetasiga asosan moddiy rag'batlantirib borish bo'yicha takliflar kiritib borish;

xalqaro kimyo olimpiadasining metodik nuqtai nazaridan, olimpiada jarayonlarida qo'llanilgan nazariy va amaliy topshiriqlardan erkin foydalanish uchun ochiq elektron resurslarga joylashtirish choralarini ko'rish;

Olimpiadani o'tkazish talablariga muvofiq tuman (shahar), hudud, respublika, mintaqaviy va xalqaro darajadagi olimpiadalar, xorijiy davlatlar bilan birgalikda qo'shma o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish choralarini ko'rish;

mazkur buyruq bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar reja ijrosi bo'yicha tashkiliy qo'mitaga hisobot kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev)ga 2026-yil xalqaro kimyo olimpiadasi uchun saralab olingan zaxira kadrlarni Renessans hamda kimyo bo'yicha tayanch ixtisoslashtirilgan maktablar bazasida intensiv tayyorgarlik jarayonlarini tashkil etish va unda xalqaro kimyo olimpiadalarida yuqori natijalarni ko'rsatgan trener o'qituvchilarni jalb qilish choralarini ko'rish vazifalari yuklatilsin.

6. Axborot xizmati (D.Sobirova) nufuzli olimpiada va musobaqalarga yoshlarni tayyorlash, ularni yuqori saviyada o'tkazish, shu jumladan, Olimpiada jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish va vazirlikning veb-saytiga joylashtirish choralarini ko'rsin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

Toshkent sh.,
2024-yil "17"-iyul,
219-son



X.Umarova